

МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

2-сан 2023

март-апрель

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Урлобай МИРСАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Фархад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Тажибай УТЕБАЕВ
Маманазар ДЖУМАЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гавхар ЭЩАНОВА
Аскәrbай НИЯЗОВ	



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Umarov I. A, Jumanova D. U. "Malika ayyor" dostonida ijtimoiy-siyosiy leksika	6
Namazova G. M. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari	17
Абдувалиева Н. Алишер Навоий ғазалларида паремаларнинг маъновий хусусиятлари	25
Rahmanova D. Nemis tili dialektlari va jonli so'zlashuv nutqi	31
Раметова Б. О характеристиках научной фразеологии	36
Чутбаева А. Б. Трансформация русско-узбекских религиозных паремий в произведениях узбекских писателей	45
Mirzayev A. X. Qualitative adjectives	54
Utambetova A. K. Evaluation category in uzbek and english languages (based on good and bad concepts)	61

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Majidov Sh. S, Sayfullayev L. N. Masofaviy ta'lilda pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi	66
Bo'ronov Sh. Sh. Talabalarning ekologik kompetentligini o'stirishda hadis ilmining o'rni va ahamiyati	75
Abdullayev I. X. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'naliishi talabalarida kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirishning metod va vositalari	81
Tursunova N. T. Pedagogika va ona tili o'qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan integratsiyalashgan ta'lim asosida didaktik yondashuv	88
Жакбарова З. С. Олий таълим муассасаси талабаларида ижтимоий-маданий компетентликни ривожлантиришнинг назарий-методологик асослари	95
Акбаров А. Т. Ўқувчиларни ҳарбий ватанпарварлик рухида тарбиялашнинг илмий-педагогик асослари	100
Abdullayev S. A. Tabiat ob'eklarini adekvat modellasshtirish asosida o'quvchilarning ekodidaktik bilimlarini takomillashtirish	109
Arslanova F. Z., Abdujalilova Sh. A. Inklyuziv ta'lim-muqarrar ta'lim sifatida	118
O'tayev A. Y. Siyosiy pedagogika fanini o'zlashtirishning dolzARB muammolari	123
Расулов А. Н., Абдуҳакимова Н. Х., Зайниддинова Х. З., Таникулов А. Р., Исройилжонов А. Қ. Таълим кластери шароитида "Иктиносий билим асослари" фанини ўқитиш зарурлиги	128
Расулов А. Н., Ҳакимова И. Х., Сайфиев С. Ш., Абдуллоев Ж. А. Таълим кластери шароитида "Иктиносий билим асослари" фанини ўқитишнинг услубий-дидактик таъминотини яратиш	134
Эрназарова Г. О. Бўлажак ўқитувчиларда педагогик компетенцияларни шакллантириш	139
Хуррамов К. М. Тадбиркорликни миллий иктисодиётдаги ўрни, моҳияти ва мезонлари	145
Рашидова Ш, Бердикулова Н. Э. Особенности использования инновационных и интегрированных технологий обучения	151
Эргашева Д. Д. Модульно-кредитное обучение в вузе на базе дидактических педагогических принципов	156
Наркабилова Г. О необходимости развития цифровой культуры среди студентов	163



“SIYOSIY PEDAGOGIKA” FANINI O‘ZLASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

O‘tayev A. Y.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Umumiy pedagogika” kafedrasи v.b.dotsenti., p.f.f.d (PhD)

Tayanch so‘zlar: ta’lim, pedagogika, siyosiylik, strategiya, sifat, taraqqiyot, onglik, bilim, faoliyat, qonuniyat, ko‘nikmalik, o‘rganish, o‘zlashtirish, amaliyat, faoliyat, vosita, muammo, xususoyat, nazariy, yechim.

Ключевые слова: образование, педагогика, политика, стратегия, качество, развитие, сознание, знание, активность, правомерность, умение, обучение, мастерство, практика, деятельность, инструмент, проблема, характеристика, теоретическое, решение.

Key words: education, pedagogy, politics, strategy, quality, development, consciousness, knowledge, activity, legitimacy, skill, learning, mastery, practice, activity, tool, problem, characteristic, theoretical , the solution.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sون Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da “*mamlakatda ta’lim sifatiga erishish*” vazifasi qo‘ylgan [1]. Ta’lim sifati eng avvalo pedagogik fanlarning barcha turlari va turkumlarini o‘rganish, o‘zlashtirish hamda amaliyotda foydalanish bilan muhim mezon hissoblanadi. Shu jihatdan Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan “Siyosiy pedagogika” fani oliv pedagogik ta’lim jarayonida o‘rganish va uning vositasida pedagogik ta’lim sifatiga erishish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning eng muhim jihatlari tahliliga tortamiz.

1. “*Siyosiy pedagogika*” fanining xususiyatlari. “Siyosiy pedagogika” fani Pedagogika fanining tarkibiy qismi bo‘lib, siyosat, pedagogika va psixologiyat qonuniyatlariga uyg‘un asoslangan amaliy, nazariy hamda metodologik asoslarga ega fandir[2]. Shu jihatdan mazkur fan ta’lim oluvchilarning siyosiy bilim, siyosiy ong va siyosiy faoliyat asoslarini tarkib toptirishi bilan muhim xususiyatlag ega. Bu fan mazkur masalalarda asosiy tayaniladigan quyidagi qonuniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:



a) siyosatshunoslik, pedagogik va psixologik qonuniyatlarning asosiylari bo‘lgan bilim, ko‘nikma hamda malakani tarkib toptirish asosida ta’lim oluvchilarning siyosiy ongini shakllantirish;

b) jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda milliy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarga siyosiy bilim beri;

v) ta’lim jarayonining talablariga mos ravishda ta’lim oluvchilarni siyosiy faoliyatga tayyorlash.

E’tibor berilsa, bu fan ta’lim oluvchilarni siyosiy faollashtirishda muhim o‘rin tutadi.

2. “*Siyosiy pedagogika*” fanining nazariy asoslari. “Siyosiy pedagogika” fanining nazariy asoslari o‘ziga xos bo‘lib, asosan unda jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqib aniq omillarga tayanadi. Shu jihatdan bu fanning asosiy nazariy omillarini quyidagilar tashkil etadi:

a) davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga asosan ta’lim oluvchilar uchun siyosiy-pedagogik nazariy yondoshuvlarga tayanish;

b) siyosiy ta’lim va siyosiy tarbiya bo‘yicha milliy hamda jahon xalqlari tajribalariga asoslanish;

v) jamiyatning tarixiga oid siyosiy manbalar, zamonaviy davlat ta’lim standartlari va malaka talablari asosida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarning nazariy hamda metodik tavsiyalariga tayanish.

Diqqat qilinsa, mazkur fanning nazariy asoslari o‘ziga xos bo‘lib, unda asosiy masala ta’lim oluvchilarni jamiyat siyosiy ehtiyojlariga moslashdan iborat.

3. “*Siyosiy pedagogika*” fanining milliy tarixi. Mamlakatimizda “Siyosiy pedagogika” fanining o‘ziga xos milliy tarixi mavjud. Ayni paytda, mazkur masala pedagogik tadqiqotchilimizda endi tadqiq etila boshlaganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Shu jihatdan bizning yondoshuvimizga ko‘ra, mamalakatimiz “Siyosiy pedagogika” fanining tarixiy bosqichlarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1) qadimgi davr (eng qadimgi davrlardan VIII asrgacha);

2) o‘rta asrlar davri (VIII – XX asr 90 - yillari);

3) yangi davr (Mustaqillik davri).

“Siyosiy pedagogika” fanimiz mazkur davrlarda o‘ziga xos shakllanish, rivojlanish va takomillashish jarayonida bo‘ldi. Jumladan, qadimgi davrga oid “Avesto” kitobida ta’lim oluvchilarga 15 yoshga qadar Ezgulik va Yovuzlikni farqlash g‘oyasi asosida siyosiy bilim berilgan. hamisha yordamga tayyor turish nazarda tutiladi. Pedagogikamiz va Siyosiy pedagogika nazariyasi hamda amaliyotida ta’lim oluvchilarni ezgulik ruhida tarbiyalash targ‘ibot qilib kelinadi. Inson ezgu niyatli, So‘zli va Amalli bo‘lsa, jamiyat ham shunday



bo‘ladi. Aksincha, inson yovuz niyatli (“andeshali bad”), yovuzona So‘zli (guftori bad) va makkor Amalli (“kirdori bad”) bo‘lsa, u yashayotgan jamiyat va tuzum ham shunga aylanib boradi.

Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Niyat – maqsad- muddao, orzu va intilishni; So‘z – muomala, munosabat va muloqotni; Amal – ish, harakat va faoliyatni anglatadi. O‘rtalashtirishda esa bir qator muhim asarlar bitilib, ular vositasida ta’lim oluvchilarining siyosiy ongi va siyosiy ko‘nikmasi tarkib toptirilgan. hamisha yordamga tayyor turish nazarda tutiladi.

Bu borada Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida siyosiy bilimlar Fazilatlik g‘oyasi asosida, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asarida siyosiy ongni shakllantirishda Adolat g‘oyasiga tayanish, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida Bunyodkorlik g‘oyasi asosida shaxsnining siyosiy faoliyatini tarkib toptirish va Xoji Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asarida esa shaxsni siyosiy –amaliy faoliyatga tayyorlashda boshqaruv Iqtidorini shakllantirish masalalari tahlil qilib berilgan. Bu manbalarni o‘rganish va ulardagagi ta’kidlangan g‘oyalarni o‘zlashtirish bugungi kunda dolzarb bo‘lib turibdi. Shuningdek, mustaqillik yillarda politolog olimlar tomonidan butunlay yangicha yondoshuvlarga asoslangan siyosiy tadqiqotlar amalga oshirilganligini eslatib o‘tish joiz.

E’tibor berilsa, mamlakatimiz “Siyosiy pedagogika” fani o‘ziga xos tarixiy asoslarga ega bo‘lib, unda bugungi kunda butun dunyo olimlari tomonidan o‘rganilayotgan manbalarning yaratilganligi muhim amaliy ahamitga ega.

4. *“Siyosiy pedagogika” fanini o‘rganish zaruriyati.* Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion jamiyat barpo etilmoqda [3]. Innovatsion jamiyat fuqarolarning siyosiy jihatdan yetuk va faol bo‘lishini taqoza etadi. Chunki bunday jamiyatda siyosiy jarayonlar yangilanib borish xususiyatiga ega bo‘ladi va fuqarolar ana shu jarayonda jamiyat ehtiyojlariga mos siyosiy faollik ko‘rsatishi kerak. Aks holda, jamiyatda yangilanish kutilgan darajada bo‘lmaydi. Shu jihatdan bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagoglarning “Siyosiy pedagogika” fanini o‘rganish va o‘zlashtirishi zaruriyat bo‘lib turibdi. Buning natijasida mazkur fan bo‘yicha nazariy bilim, metodik ko‘nikma va amaliy malakaga ega bo‘lgan pedagog kadroar vositasida quyidagi muhim natijalarga erishish imkoniyatlariga ega bo‘ladi:

a) ta’lim oluvchilarining maqsadli siyosiy bilim va siyosiy ko‘nikma bilan qurollantirish;

b) ta’lim oluvchilarini jamiyat talablariga mos ravishda siyosiy faollashtirish;

v) ta’lim oluvchilarini siyosiy malaka bo‘yicha jahondagi tengdoshalir bilan hamkorlik qila oladigan tarzda hayotiy tayyorlash.



Bizning yondoshuvimizga ko'ra, Siyosiy pedagogikaning mazmunini shaxsga siyosiy ta'lif berish va uni siyosiy tarbiyalash tashkil qiladi. Siyosiy ta'lif va tarbiya aynan Siyosiy pedagogikaning ob'ektidir. Siyosiy pedagogikaning asosiy tamoyillari shaxsga siyosiy bilim berish, uning siyosiy axloqini shakllantirish va uni siyosiy (boshqaruv) faoliyatiga tayyorlashdan iborat. Shu ma'noda siyosiy bilim, siyosiy axloq va siyosiy faoliyat Siyosiy pedagogikaning mohiyatini tashkil qiladi. Bugungi kunda jamiyatimizda milliy g'oya, yuksak ma'naviyat va milliy mafkura asosida siyosiy tarbiya olgan yangi avlodga bo'lgan mavjudligi sir emas.

Siyosiy bilimning qamrovi keng bo'lib, undan maqsad shaxsning siyosiy ingi, fikri va dunyoqarashini oqilona shakllantirishdir. Mamlakatimizda siyosiy bilim manbaini ma'naviyat va milliy g'oya tashkil qilishini eslatib o'tish joiz. Eng asosiysi fikrlar xilma-xilligidir [4]. Fikrlar xilma-xilligi manbaini mustaqil siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy, axloqiy va diniy qarashlar tashkil qiladi. Bunday xususiyatlarga ega bo'lganqarashlar shaxsni sog'lom siyosiy dunyoqarash sohibi sifatida tarkib toptiradi.

Siyosiy axloqning ham ko'lami keng bo'lib, uning assosi milliy g'oya va ma'naviyat konsepsiyasida mavjud. Unga ko'ra, Iroda, E'tiqod, Vijdon, Tinchlikparvarlik, Vatanparvarlik va Xalqparvarlik siyosiy axloqning asosiy tamoyillaridir [5]. Bunday sifat, fazilat va xususiyatlarga ega shaxsni siyosiy axloqli hisoblash mumkin. Siyosiy axloqning asosiy prinsiplaridan biri murosa hisoblanadi [6].

Siyosiy faoliyat boshqaruvda namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekiston sharoitida siyosiy faoliyat shaxsning siyosiy faoligi va fidoyiligiga asoslanadi. Bunda ayniqsa, siyosiy faoliyatda shaxsning Millatlararo totuvlik, Ijtimoiy hamkorlik va Dinlararo bag'rikenglik tamoyillariga qat'iy amal qilish muhim hisoblanadi.

E'tibor berilsa, Siyosiy pedagogika o'ziga xos metodologik asoslarga ega bo'lib, shaxs ta'lif – tarbiyasida muhim vazifani bajaradi. Shu sababli bugungi kunda Siyosiy pedagogikaning mazmun-mohiyati, uning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini idrok qilib olish zaruriyat bo'lib turibdi.

Diqqat qilinsa, bu imkoniyatlar hozirgi zamon innovatsion jamiyatimizning ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur fanni o'rganish va o'zlashtirish bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi.

Shunday qilib "Siyosiy pedagogika" fanini o'rganish bugungi kunning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy tamoyil sifatida ilm-fan va ta'lif uyg'unligiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”://www.Ziyonet.uz.
2. Politicheskaya pedagogika. Kollektiv.-Moskva, 2017
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son “2022-2026 yillarga O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlanish strategiyasi”. //www.Ziyonet.uz.
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.: “Ўзбекистон”.2014.
5. Миллӣ истиқлол фоёси асосий тушунча ва тамоӣиллар.-Т.: “Ўзбекистон”.2001.
6. Темур тузуклари.-Т.: “Ўзбекистон”.2013.
7. Kadirova X. The role of epics in the formation of national outlook in future teachers. Mental Enlightenment Scientific - Methodological Journal.June, 2022, № 4 Volume 2022 / Issue 4 Article 14 №. Б. 167-175

РЕЗЮМЕ

Maqolada “Siyosiy pedagogika” fani Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi sifatida ta’lim oluvchilarning siyosiy ongi, siyosiy bilimi va siyosiy faolligini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada Siyosiy pedagogika fanining xususiyatlari, nazariy masalalar va uni o‘rganishning pedagogik – amaliy ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilib, bu masalalar pedagogik qonuniyatlar asosida tahvil qilingan va tavsiyalar taqdim etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье отмечается, что предмет «политическая педагогика» как важная составляющая педагогической науки занимает важное место в формировании политического сознания, политических знаний и политической активности обучающихся. В статье рассматриваются особенности политico – педагогической науки, теоретические вопросы и педагогико-практическое значение ее изучения, анализируются данные вопросы на основе педагогических закономерностей и даются рекомендации

SUMMARY

«Political pedagogy» plays an important role in shaping the political minds, political knowledge, and political activity of teachers as an important component of pedagogical science. The article discusses the characteristics of this subject, theoretical issues, and the pedagogical and practical significance of studying it, which are analyzed and recommended based on pedagogical laws.

